



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

BEKPOSHSHA RAHIMOVA¹

¹ Urganch davlat universiteti dotsenti, f.f.n. E-mail : filolograhimova @ mail.ru

BADIY ADABIYOTDA IJODKOR SHAXS OBRAZI TALQINLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola badiiy adabiyotda davr va tarixiy shaxs konsepsiysi masalasiga bag‘ishlangan.Unda ushbu masalaning ilmiy-nazariy asoslari muxtasar bayon etilib, asosiy fikr donishmand shoir va pahlavon Pahlavon Mahmud haqidagi turli ilmiy manbalar va badiiy asarlar tahlili orqali bayon etilgan, muayyan natijalar umumlashtirilgan.

Tayanch so‘zlar: tarixiy shaxs obrazi, zamon va makon, adabiy tafakkur, tarixiy mavzu, badiiy tafakkur, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, zamonaviylik, uslub, milliy xarakter.

Аннотация. Данная статья посвящена проблеме концепции периода и исторической личности в художественной литературе. В ней обобщены научно - теоретические основы этого вопроса, основная идея сформулирована посредством анализа различных научных источников и произведений искусства



о мудром поэте и герое Пахлавоне Махмуде, обобщены определенные результаты.

Ключевые слова: образ исторической личности, время и пространство, литературное мышление, историческая тема, художественное мышление, историческая реальность, художественная фактура, современность, стиль, национальный характер.

Annotation. This article is devoted to the issue of the concept of a period and a historical figure in fiction. The scientific-theoretical bases of these issues are briefly described, the main idea is stated through the analysis of various scientific sources and literary works about the wise poet and hero Pahlavon Mahmud, certain results are summarized in the article.

Keywords: The character of historical figure, time and place, literary thought, historical theme, historical truth, literary fiction, modernity, style, national character.

Kirish. Badiiy ijod adabiy tafakkur shakllaridan biri bo‘lib, inson uning bosh tasvir ob’ektidir. Bu ob’ekt tasviri mavjud olamning oliv xilqati bo‘lmish insonni badiiy kashf etishga, uni muayyan zamon, makon va ijtimoiy-estetik ideal kontekstida ko‘rsatishga qaratilgan ijodiy jarayondir. Bu jarayonda, tabiiyki, ijodkorning real voqelik va shaxs haqidagi qarashlarini, inson kechinmalari, orzulari, ruhiy olamini ma’lum estetik maqsadga muvofiq aks ettiradi. Adabiy-tarixiy talqindagi inson o‘z xarakteri, ma’naviyati, ijobiy va salbiy jihatlari bilan turli davrlarga mansub kishilarning badiiy timsolidir. Zero, inson va jamiyat mavzusi keng ma’noda, umuman, adabiyotning asosiy mavzusi bo‘lsa, Vatan va xalq manfaati yo‘lida nom qozongan mashhur shaxslar va olamshumul voqealar tarixiy mavzu ob’ektidir. Bu mavzu silsilasida ijodkor tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlarning o‘ziga xos o‘rni bor. “CHunki har bir tarixiy shaxs, ayniqsa, tarixiy ijodkor shaxs qismatida tarixning uch tarkibiy qismi - o‘tmishi, hoziri va kelajagi bir butun uyg‘unlikda yashaydi”[1].

O‘zbek adabiy tafakkurining barcha bosqichlarida buyuk tarixiy siymolar, jumladan, ijodkor shaxslar haqida turli asarlar maydonga kelgan. YOzma adabiyotda ularning turli janr va uslubdagi namunalari mavjud. CHunonchi, Beruniy, Ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi alloma va adiblar



to‘g‘risida turli davr va janrlarda vujudga kelgan asarlar buning dalilidir. Bu asarlarning o‘ziga xosligi shundaki, ulardagi qahramonlar faoliyati o‘zlari mansub davr voqeligi bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. SHu bois ular, bir tomondan, o‘z davrining farzandi, ikkinchi tomondan, ilg‘or dunyoqarashlari va yuksak ideallari bilan tarixan o‘z zamonasidan ilgarilab ketgan siymolar sifatida gavdalanadilar. Binobarin, ular xarakterida milliy va umumbashariy jihatlar uyg‘unlashadi. Pahlavon Mahmud talqinida ham bu xususiyatlar mujassamlashgan bo‘lib, milliy xarakter yo‘nalishi ustunlik qiladi. Tarixiy shaxs muayyan davrga mansub bo‘lib, ijtimoiy sharoitda shakllanadi, mushtarak va individual xususiyatlarga ega bo‘ladi. SHu sababli adabiy-tarixiy talqinda ikki nuqta – shaxs va muhit munosabati nihoyatda muhimdir. Binobarin, bu jarayonni o‘sha sharoit bilan uzviy bog‘lanishda tadqiq etish va baholashdan iborat tamoyil badiiy ijodda tarixiy shaxs konsepsiyasining asosiy shartlaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xalq hayoti va vatan ravnaqida o‘chmas iz qoldirgan shaxslar talqinida davr haqiqati va ezgulik g‘oyalarining in’ikosi avvalo, tarixiylik bilan bog‘liqdir. Zero, badiiy asarlarda Beruniy va Ibn Sino talqini X–XI asrlar, Navoiy va Bobur talqini esa XV–XVI asrlardagi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘lanishi mahorat bilan tasvirlangan. Adabiyotshunos M.Qo‘sjonov ta’kidlaganidek, tarixiy shaxs yashagan, ishlagan muhitiga ko‘proq e’tibor berish, bizning nazarimizda, yirik siymolar obrazini yaratishning muhim tomonidir[2].

Ijodkor shaxs talqiniga adabiy-tarixiy yondashuvda muallifning nuqtai nazari, adabiy qahramon xarakteri va bu xarakterga ijtimoiy muhit va an‘analar ta’siri kabi omillarning alohida o‘rni bor. Bulardan muallif pozitsiyasida shaxs va voqelik munosabatini yoritishdagi dunyoqarashi nazarda tutilsa, qahramon xarakterida shaxsning faoliyat ko‘lami, milliy va umuminsoniy mohiyati aks etadi, muhit va an‘analarning o‘rni esa xarakterda tarixiylik va zamonaviylikning bog‘liqligi, badiiy tasvir va ifodalilikda muallif uslubining o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Bu tamoyillar tarixiy ijodkor shaxs talqini uchun, asosan, tipologik bo‘lgan quyidagi jihatlarga ustuvor diqqatni taqozo etadi:



1. Tarixiy shaxs talqini asosini tashkil etuvchi tarixiylik tamoyili ijodkor shaxs talqiniga ham xos bo‘lib, unda ijodkor shaxsiyati, davr va inson muammosi markaziy masaladir.

2. Ijodkor shaxsnинг adabiy–tarixiy talqini muallifning maqsad va iqtidoriga ko‘ra turli janrlarda va tarixiy ilg‘amlarda yaratilsa ham ularni baholashda hayot haqiqati va xolislik yagona mezondir.

3. Odatda, ijodkor shaxslarni ko‘pqirrali faoliyat xarakterlaydi. Ular shoir, alloma, arbob sifatidagi fazilatlarni o‘zlarida mujassamlashtira olgan yaxlitlikka ega barkamol shaxs timsoli bo‘lib, adabiy talqinda butun murakkabligi bilan tadqiq etilishi tasvirga tabiiylik va reallik bag‘ishlaydi.

4. Adabiy-tarixiy talqinda ijodkor individualligini belgilovchi omillardan biri - uslub har bir asarda o‘ziga xos bo‘lgani holda mohiyat jihatdan asar pafosi – inson va ezgulikni ulug‘lash g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy ijodda tarixiy ijodkor shaxs konsepsiysi talqinidagi ushbu etakchi tamoyillar o‘zbek adabiyotida yaratilgan ko‘plab asarlarda o‘z ifodasini topgan. SHarqning mashhur tarixiy siymolaridan biri Pahlavon Mahmud (1247-1326) haqidagi asarlarda ham uning badiiy obraqi talqinida shu tamoyillar mavjud. Ma’lumki, Pahlavon Mahmud o‘zining hayratomuz donishmandligi, teran aql-zakovati, hur fikrli shoirlilik salohiyati va benazir pahlavonligi bilan keng shuhrat topgan va tom ma’nodagi piri komil inson timsoliga aylangan. Uning badiiy, diniy va falsafiy asarlardan iborat ijodiy merosi ma’naviy qadriyat sifatida insonlarni ezgulik va komillikka chorlab kelmoqda, amaliy faoliyati ham avlodlar uchun ibrat namunasiga aylangan: u Xorazm javonmardiyari jamoasining sardori sifatida umrini xayrli ishlarga bag‘ishladi, riyokorlik va jaholatni qoralab, saxovat va muruvvat yo‘lini tutdi, raiyatparvarlik g‘oyasiga amal qilib, horijdagi eldoshlarini tobelikdan xalos etdi, mardlik va najotkorlik, ma’naviy va jismoniy yuksaklik ramziga aylandi.

Pahlavon Mahmud shaxsidagi bu fazilatlar xalq xotirasida asrlar osha saqlanib kelmoqda. SHu sababli og‘zaki va yozma manbalarda shoirning hayoti va faoliyatiga oid qator ma’lumotlar mavjud va ular Pahlavon Mahmud badiiy siymosi uchun asos bo‘ldi.

Bular, asosan, xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarini va yozma adabiyot asarlari bo‘lib, turli davr va janrlarda aks etgan. Zero, shoir badiiy obrazni talqinlariga oid manbalar u hayotligidan yaratila boshlanib, hozirgacha davom etgan uzoq davr hamda quyidagi asarlar va bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) *shoir yashagan davr*: Pahlavon Mahmud badiiy obrazining asosiy zamini va manbai - tarixiy voqelik, shoirning hayoti va adabiy merosi (ruboiyoti va «Kanz-ul haqoyiq» - «Haqiqatlar xazinasi» masnaviysi);

2) *XIII va XVIII asrlar*. Pahlavon Mahmud hayoti va faoliyati haqida xalq og‘zaki ijodiyotida yaratilib, manoqib va to‘plamlarga kirgan va so‘nggi davrlarda chop etilgan epik asarlar:

a) *Rivoyatlar*: «Pahlavon Mahmud» («Hazrati Pahlavon ota hikoyatlari» va «Hazrati Pahlavon Alayhirrahma»).

b) *Doston*: «Filmahmud».

3) *XV–XIX asrlar*. Pahlavon Mahmudning shoir, donishmand va pahlavon sifatidagi xislatlari haqida SHarq mualliflari tazkira, lug‘at, qomuslardagi ma’lumotlar (Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat»; Kamoliddin Gozurgohiyning «Majolis ul-ushshoq» («Oshiqlar yig‘ilishi»); Ahmad Rizoning «Haft iqlim» (Etti iqlim); SHamsiddin Some’bekning «Qomus ul-a’lam» (Istambul, 1896 y), shuningdek, 1894 yilda Bombayda nashr etilgan «Otashkadai Ozariy» nomli mashhur SHarq tazkirasi va boshqalar.

4) *XX asr o‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud haqida yaratilgan asarlar*: *Qissalar*: Komil Ikromovning «Mahmud dorboz» qissasi (rus tilida), E.Samandarning «Pahlavon Mahmud Piryorvaliy qissasi»; *dramatik doston*: O.Matjonning «Pahlavon Mahmud»; *qasida*: E.Samandarning «Polvon ota»; *she’rlar*: A.Oripov, B.Ro‘zimuhammad, E.Samandar va boshqalar qalamiga mansub.

Ko‘rinadiki, har bir tarixiy davrda vujudga kelgan asarlar shoir obraziga yondashuvda ijod shakllari (og‘zaki va yozma) va janr rang–barangligi bilan farqlanadi hamda o‘sha davrdagi ijtimoiy–estetik qarashlar ustuvorligi bilan izohlanadi. Lekin Pahlavon Mahmudning zukko shoir va javonmard pahlavon sifatidagi talqini barcha asarlar uchun tipologik xususiyatdir. Pahlavon Mahmud siymosini yaratishda birlamchi manba uning asarlari bo‘lib, ular haqqoniyligi bilan muallif uchun eng



ishonchli manba sifatida qimmatlidir. Hasbi hol xarakteridagi bu materiallar talqinda yanada sayqal topib, shoir individual xususiyatlarini aniqlashda foydalaniladi. Binobarin, shoir siy়mosi, avvalo, uning masnaviy va ruboilalaridagi qarashlari bilan birga gavdalanadi. Ammo adabiy obraz o‘ziga asos bo‘lgan tarixiy prototipga nisbatan qamrovliroq va badiylashgan tushunchadir.

Tarixiy shaxslar talqinida og‘zaki rivoyaviy asarlar jahon, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham keng tarqalgan bo‘lib, u Pahlavon Mahmud obraziga ham xosdir. Ular yuqorida qayd etilgan manbalarda rivoyat, xalq romani, afsona, hikoyat, naql kabi nomlar bilan atalsa ham, asosiy janriy xususiyatga tayanib ularni umumiyl nom bilan «rivoyatlar» deyish ma’qul ko‘rinadi. CHunki “rivoyatda hayotiy voqealarni badiiy uydirmalar vositasida hikoya qiluvchi realistik tarixiy shaxslar tipida shu shaxslar faoliyati bilan bog‘liq hodisalar hikoya qilinadi, muayyan faktlar haqida axborot beriladi”[3]. Bundan tashqari, rivoyat tarixiy haqiqatga muvofiq bo‘lsa, uning mantig‘iga mos kelsa nodir manbaga aylanadi va mavzuni yangi fikrlar bilan to‘ldiradi, ayrim qirralarini kashf etadi. Pahlavon Mahmud to‘g‘risida xalq rivoyatlarida tarixiylik bilan badiiylik sintezlashib ketgan bo‘lib, badiiy syujet asosidagi voqealar tasviri shoirning real faoliyati haqida o‘sha davr manbalaridagi talqin bilan hamohangdir.

XV asrga kelib qator SHarq mamlakatlarida nom qozongan Pahlavon Mahmud siy়mosi turkiy va forsiy tillardagi eng mashhur tazkiralarda ham qayd etildi. Dastlab, shoir haqida Xorazmda, o‘zbek tilidagi og‘zaki asarlar yangi ma’lumotlar bilan boyib, fors-tojik tilidagi kitoblardan ham o‘rin oldi. Ammo bu hol Pahlavon Mahmudning shoir va pahlavon obrazi talqinidagi milliy kolorit va o‘ziga xos xususiyatlarni inkor etmaydi, aksincha, uning faoliyatidagi gumanistik pafosni yanada kuchaytirishga va shoir timsolidagi milliy va umumbashariy xarakterni chuqurlashtirishga imkon beradi.

Pahlavon Mahmud badiiy obrazi talqinida XX asr yangi bosqich bo‘ldi va qator o‘ziga xos xususiyatlar kasb etdi. Birinchidan, shoir haqidagi asarlar yozma adabiyot namunalari bo‘lib, janriy xilma-xildir (qissa, doston, qasida, she’rlar). Ikkinchidan, Pahlavon Mahmud to‘g‘risidagi tarixiy haqiqatning tiklanishi, yangi ruboilarning topilishi, chop etilishi va keng ko‘lamda o‘rganilishi kuzatildi. Lekin bu jarayonda davr mafkurasi va adabiy merosga munosabatda quyidagi holatni ko‘ramiz:



XX asrning 60-yillarida yaratilgan qator asarlardagi adabiyotni siyosatlashtirish ta'siri K.Ikromovning "Mahmud dorboz" qissasida namoyon bo'lsa, asr oxiridan boshlangan istiqlol davrida yuzaga kelgan asarlarda Pahlavon Mahmud obrazi talqinida xolislik, chinakam tarixiylik va badiiylik tamoyillari asosidagi yondashuv ustunlik qiladi (O.Matjon, E.Samandar, A.Orlov, B.Ro'zimuhammad asarlari). Muhimi shundaki, bu asarlarda shoirning tom ma'nodagi real adabiy obrazi yaratildi va u donishmand shoir va pahlavon sifatidagi tadrijiy takomilda kashf etilgan xarakter darajasiga ko'tarildi. Darhaqiqat, "adabiy xarakter real hayotiy inson xarakterining ko'chirmasi, kopiyasi emas, badiiy adabiyotdagi xarakter nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u ham real hayotiy, ham ijodkor fantaziyasidagi, idealidagi tasavvurlarni mujassamlashtirgan bo'ladi, ijodkor xarakter vositasida voqelikka munosabat bildira oladi"[4].

Xarakter yaratish tarixiy shaxs talqinidagi muhim jihatlardan biridir. CHunki badiiy xarakter konkret voqelikda shakllanadi, takomillashadi va ular o'rtasidagi aloqadorlik shaxs va borliqni ijtimoiy jarayondagi ob'ektiv hodisalar sifatida gavdalantiradi. SHu jihatdan Pahlavon Mahmud xarakterining mohiyati, avvalo, uning o'z ijtimoiy muhitiga, mo'g'ullar istilosidan keyingi davr voqeligidagi dolzarb masalalarga teran munosabatida namoyon bo'ladi. Bular bosqinchilik va jaholatni qoralash, mardlik, "miskin g'ariblarga poyigoh bo'lish", ma'naviy zulmga inson erkini, razillik va tubanlikka axloqiy poklik va barkamollikni qarshi qo'yish va boshqalar.

Odatda tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlardagi talqin ikki yo'nalishga ega. Birinchisida tarixiy shaxsning tarjimai holi talqini aynan aks ettirilib, tarixiy voqealar fon vazifasini bajaradi. Ikkinchisida esa tarixiy shaxs hayotidagi muayyan voqealar yoki ularning bir qismi talqini orqali muhim ijtimoiy-axloqiy muammolar ko'tariladi. Pahlavon Mahmud haqidagi asarlar ikkinchi yo'nalishga mansubdir. Tarixiy fakt va dalillarning mavjudligi yozuvchi uchun zarur material bo'lib xizmat etsa ham ularga ijodiy yondashish, badiiy to'qima, mubolag'a va boshqa badiiy usul hamda vositalardan foydalanish talab etiladi. SHu sababli adabiy talqinda obrazni shakllantiruvchi uch omil – prototip (hayotiy material), badiiy to'qima (ijodkor fantaziysi) hamda asosiy g'oya (estetik ideal) sintezi yuzaga keladi. Binobarin, "yozuvchi badiiy to'qima yordamida konkret odamlardagi mavjud ijobiy yoki salbiy

hislatlarni va ro'yobga chiqmagan imkoniyatlarni real qilib tasvirlaydi, hayotiy faktni o'z ijodiy maqsadiga muvofiq rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi va badiiy to'qima hayotdan olingan haqiqiy taassurotlarga asoslaniladi”[5]. Bu xususiyatlar Pahlavon Mahmud haqidagi asarlarda ularning janriy belgilari va ijodkor salohiyatiga bog'liq holda aks etgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tarixiy fakt va badiiy to'qima munosabati adabiy talqinining o'zak muammolaridan biridir. Obraz yaratish jarayonining bu ikki qirrasi o'zaro bir-birini taqozo etib, umumiy yaxlitlik vujudga keltirsagina asar mohiyati va adabiy xarakter yorqin ifodalanadi. Xususan, tarixiy shaxsni badiiy obrazga aylantirish xayolot unsurisiz bo'lmaydi. CHunki mavjud faktlar tarixiy shaxs faoliyatidagi tadrijiylikni, turli vaziyatlar bilan bog'liq evrilish va o'zgarishlarni doimo ham aniq ifodalamasligi mumkin. SHu sababli chinakam tarixiy asarlarda “tarixiy shaxslar o'z davrida tutgan sotsial mavqeい, hayotdagi roli, tarixiy haqiqatga mos ravishda buzmasdan saqlanadi va to'qima yo'li bilan yaratilgan xarakterlarga bog'langan holda haqqoni tasvir etiladi”[6]. Bu holni hayoti va ijodi haqida nisbatan kam ma'lumotlar etib kelgan va ular yaqin vaqtlargacha etarli o'rganilmagan Pahlavon Mahmudga munosabatda ham ko'ramiz. SHu tufayli shoir haqidagi asarlarda badiiy to'qimaga muayyan o'rin berilgan bo'lib, u obrazlar tizimi, qo'shimcha lavha va motivlar, konflikt ko'لامi va boshqa qismlarda uchraydi. Tarixiy haqiqat asos bo'lgan bu asarlarda badiiy to'qima quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

a) tarixiy shaxs hayotidagi real fakt va voqealarni bir-biriga mantiqan bog'lovchi vosita sifatida: chunonchi Pahlavon Mahmudning Eron va Hindiston bilan bog'liq real sarguzashtlarini zamon jihatdan muayyan uzviy aloqadorlikda tasvirlashda badiiy to'qimaga murojaat etiladi va bu hol qahramon xarakterini yorqinlashtirishga qaratiladi;

b) tarixiy obrazning o'zi muallif niyati va asar g'oyasini to'la ifodalashga kifoya qilmaganda to'qima obraz va voqealardan foydalanish: jumladan, xalq rivoyatlari va «Filmahmud» dostonida Mahmud timsolida javonmardiylilikni ulug'lash maqsadini to'la ifodalash uchun ustoz va do'stлari to'qima obrazlari kiritilgan bo'lsa, yozma adabiyot namunalarida, asosan, Mahmudning el xaloskori va donishmandligini,



xorijdagi voqealarda esa pahlavonligini tasvirlash maqsadi qo‘yiladi va bunda to‘qima epizod va personajlarga muayyan o‘rin beriladi;

v) badiiy to‘qima adabiy qahramon – tarixiy shaxs xarakterining shakllanish jarayonlarini ishonarli va yorqin ko‘rsatishga ham yo‘naltiriladi. Buni Pahlavon Mahmudning shoir, hunarmand va pahlavon sifatida barkamollikka eta borishini oydinlashtirishda ko‘rish mumkin. Xususan, to‘qima hunarmand–po‘stindo‘zligini tasvirlashda ko‘pincha hayotiy–maishiy lavhalarda, pahlavon va shoir sifatida esa jismoniy qudrati va badiiy iqtidori ko‘tarinki talqinlarda namoyon bo‘ladi. Muhimi shundaki, bularning barchasida ijodiy fantaziya xayoliy uydirma emas, balki hayotiy to‘qima shaklida yuzaga keladi.

Pahlavon Mahmud haqida mustaqillik yillarda yozilgan ayrim asarlarda tarixiylik konsepsiysi xususida bahsli, biryoqlama fikrlar ham uchraydi. Bunday holatlarni E.Samandarning “Tarix va talqin”[7], M.Abdulhakimning “Tazarru” maqolalarida ko‘ramiz. E.Samandar Pahlavon Mahmudning masxaraboz va xudosiz qilib tasvirlashiga ham e’tiroz bildiradi. Birinchidan, qissada shoirning masxarabozligi xaqida biror lavha, hatto gap ham yo‘q. Agar dorbozlik masxarabozlik deb tushunilgan bo‘lsa, ular xalq san’atining boshqa–boshqa turlari ekanligi ma’lumku! Ikkinchidan, Pahlavon Mahmudni xudosiz, dahriy sifatidagi talqinida, tabiiyki, adabiyot siyosat quroliga aylangan davr tayziqi, din ahllarini zamonaviylashtirishga urinish aks etgan.

SHoir va tarjimon M.Abdulhakimning qissa haqidagi «Tazarru» maqolasi ham ko‘p jihatdan E.Samandar fikrlariga hamohang[8]. Lekin bunda muallif asar yaratilgan davr xususiyatlari va yozuvchi dunyoqarashini qissadagi ifodasini birmuncha kengroq aks ettirib, «asar to‘g‘risidagi fikrlarimiz muayyan darajada o‘zlarimizning ham tavba–tazaruimiz bo‘lmog‘i kerak», - deydi. Qo‘rinadiki, adib E.Samandar Pahlavon Mahmud va Said Aloviddin obrazlari talqini tarixiy haqiqatga zid ekanini ta’kidlassa, shoir va tarjimon M.Abdulhakim, asosan, yuqoridagi fikrlarni kengaytirib va ma’qullab, asar nuqsonlarini muallifning 60–yillardagi mafkuraviy siyosatga bog‘liq kayfiyati bilan izohlaydi Fikrimizcha, bu o‘rinda asarni o‘sha davr badiiy tafakkuridagi etakchi tamoyillar va adib uslubidagi o‘ziga xoslik asosida chuqurroq idrok etish ko‘proq zarur.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Maqoladagi kuzatishlardan quyidagi natijalarga erishildi:

- 1) O'zbek adabiyotidatarixiy mavzudagi asarlarda tarixiy xarakter masalasi davr bilan bog'liqlikda yoritildi.
- 2) Tarixiylik konsepsiysi ifodasi Ibn Sino, Ulug'bek, Pahlavon Mahmud haqidagi asarlarda asosan etarli aks ettiriladi.
- 3) Tarixiy davr va shaxs munosabati talqinlarida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy masalalarining har bir muallif uslubiga ko'ra namoyon bo'lishi badiiy ijomatning o'ziga xosligi bilan belgilanishi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendation). Adabiy-tarixiy asarlarda shaxs tasvirida og'zaki va yozma adabiyotga xos badiiy kashf etish xususiyatlari kollektiv va individual ijoddagi uslublarda ham voqe bo'ladi. Pahlavon Mahmud haqidagi asarlarning hammasi uchun realistik uslub xarakterli bo'lgani holda romantik uslub unsurlari xalq rivoyatlari va dostonda yorqinroq, yozma qissalar va dramatik dostonda so'nikroq aks etadi, umumiy talqinda esa sub'ektiv faktor ustunlik qiladi. Bundan tashqari, adabiy qahramonning monologik nutqi, dialoglar, xronologik syujet, folklor an'analaridan foydalanish, personajlar individualligi kabi kompozitsion qismlar tasvirida ham bir tomonidan, xalq poetik ijodiga, ikkinchi tomonidan yozma adabiyotga xos uslubiy o'ziga xoslik mavjudki, ular Pahlavon Mahmudning ko'lamdor faoliyatining turli vaziyatlardagi xarakter qirralarining to'laqonli chiqishiga qaratilgan. SHuningdek, kollektiv ijod asarlarida tarixiy materiallar ayrim mifologik qarash va personajlar talqiniga singdirib yuborilgan bo'lsa, individual ijod namunalarida buning aksini ko'ramizki, bu ham uslubga xoslikdir.

2) Tarixiy ijodkor shaxsga bag'ishlangan asarlarning yaratilish jarayonida odatda quyidagi ijodiy qismlar tizimi tipologik model sifatida namoyon bo'ladi: badiiy niyat----> prototip (tarixiy shaxs) ----> qahramon (badiiy obraz) ----> g'oya ifodasi. Bunda adibning teran nigohi va tarixiy ilg'am hodisasidan foydalanish mahorati muhim rol o'ynaydi. Tarixiy ilg'amning tarixiy voqe, tarixiy shaxs, tarixiy makon va tarixiy zamon kabi komponentlarning izchil badiiy talqini asar muvaffaqiyatini



ta'minlovchi omillardan biridir. Pahlavon Mahmud haqidagi asarlarda bulardan har birining qo'llanilishi turlicha zohir bo'ladi. Lekin voqelik – shoir hayoti, tarixiy shaxs - Pahlavon Mahmud, makon – Xorazm va boshqa mamlakatlar, zamon XIII–XIV asrlar ekanligi barcha asarlar uchun mushtarakdir. Bosh qahramon ilg'ami esa “yozuvchining tarixiy qahramon sajiyasi, fe'l-atvori, xatti-harakati, tashqi va ichki dunyosi, kishilar bilan o'zaro munosabati va hokazolarni o'z ijodiy niyatiga mos ravishda mantiqan asosli tasvirlashdir”[9].

3) Adabiyotshunoslikda badiiy asarlardagi Navoiy, Ulug'bek va Bobur obrazlari faoliyatida ko'pqirralik va rang-baranglik mavjudligini hamda ular harakatda, kurashda chiniqib, takomillashib, rivojlanib boruvchi dinamik obrazlar ekani alohida ta'kidlagan edi[10]. Bu xususiyat Pahlavon Mahmudga ham xos bo'lib, u shoir va pahlavon, hunarmand sifatida faoliyat ko'rsatgan ekan, bu haqdagi tarixiy va og'zaki materiallar uning to'laqonli siyemosini yaratish uchun etarli, zero, shoir va pahlavonlik talqini oldingi planda turadi.

Xullas, adabiy asarlardagi tarixiy shaxs konsepsiyasida muallifning ijtimoiy voqelik va muayyan davrga mansub shaxs hayoti va ijodi haqidagi qarashlarining badiiy talqini aks etib, uning asosida zamon va inson munosabati yotadi, badiiy asarlardagi tarixiy shaxslar taqdirida davr xususiyatlari namoyon bo'ladi, tarixiy va badiiy haqiqat tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Karimov H. Tarixiy shaxs va badiiy obraz: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent: TAI, 1999. -B. 3.
- [2] Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar.-Toshkent: "SHarq", 2018. -B.347.
- [3] Razzoqov H, Mirzaev T, Imomov K, Sobirov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent: O'qituvchi, 1980. -B.172.
- [4] Xotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1979. -B. 336.
- [5] Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. –B. 49.



- [6] Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980. -B. 194.
- [7] Samandar E. Tarix va talqin // SHarq yulduzi. –Toshkent, 2003. - №1. -B. 89-90.
- [8] Abdulhakim M. Tazarru // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2003. - 16 may.
- [9] Sattorov O‘. SHoh va shoir talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2000. -№ 6. –B. 42.
- [10] Karimov G‘. Prozamizda tarixiy tematika // SHarq yulduzi. – Toshkent, 1999. - № 3. –B. 201.